

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**XAMROYEVA SHAXZODA IKROMOVNA**

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI BADIY DISKURSIDA MUALLIF  
MUSHOHADASI VOQELANISHINING KOGNITIV ASPEKTI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent –2026**

UO‘K: 81'42+81'23:811.512.133:811.111

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological  
Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Xamroyeva Shaxzoda Ikromovna**

O‘zbek va ingliz tillari badiiy diskursida muallif mushohadasi voqelanishining  
kognitiv aspekti

.....3

**Khamroeva Shakhzoda Ikromovna**

Cognitive aspect of the representation of author’s meditation in Uzbek and English  
literary discourse .....

25

**Хамроева Шахзода Икромовна**

Когнитивный аспект репрезентации авторского размышления в узбекском и  
английском художественном дискурсе.....

49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of publications

Список опубликованных работ .....

56

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**XAMROYEVA SHAXZODA IKROMOVNA**

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI BADIY DISKURSIDA MUALLIF  
MUSHOHADASI VOQELANISHINING KOGNITIV ASPEKTI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent –2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.PhD/Fil3603 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtiriladi.

**Ilmiy rahbar:**

**Normurodova Nozliya Zarilovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Lutfullayeva Durdona Esonovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “\_\_” \_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz))

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_) raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “\_\_” \_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2026-yil “\_\_” \_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reestr bayonnoma)

**Sh.S.Sirojiddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, filol.f.d., akademik

**Q.U.Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**S.X.Muhamedova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi o‘rinbosari, filol.f.d., professor

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligi so‘nggi yillarda tilni inson tafakkuri, idroki va nutq faoliyati bilan bog‘liq holda o‘rganishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Ya‘ni til shunchaki belgilar tizimi sifatida emas, balki insonning olamni anglash va ifodalash vositasi sifatida talqin qilinmoqda. Antropotsentrik tamoyillarga asoslangan lingvokognitiv yondashuv aynan shu jihatni markazga qo‘yadi. Badiiy diskursda muallif dunyoqarashini ma‘no va uslub vositalari orqali tahlil qilish esa til, tafakkur va ijodiy ong o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochishga xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida so‘nggi yillarda muallif mushohadasini o‘rganishga qiziqish ortdi. Bu hodisa badiiy asarda muallif fikri va kechinmalarining ifodasi sifatida talqin qilinmoqda. U asarning umumiy g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq tarkibiy qism hisoblanadi. Mushohada murakkab ma‘no tuzilmasiga ega. Unda uslubiy va tafakkurga oid jihatlar bir butun holda namoyon bo‘ladi. Shu bois uni bir til doirasida ham, qiyosiy, ko‘p tilli tadqiqotlar asosida ham o‘rganish ishlari olib borilmoqda. Muallif mushohadasini adabiyotshunoslik bilan bir qatorda tilshunoslik va kognitiv stilistika yo‘nalishida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv matn tahlilining nazariy asoslarini mustahkamlaydi. Eng muhimi, badiiy asarning ichki tuzilishi va ma‘no yaxlitligini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida bir qator olimlar tomonidan antropotsentrik yondashuv asosidagi ilmiy izlanishlar keng ko‘lamda olib borilayotgan bo‘lsa-da, badiiy asarning muhim tarkibiy elementi bo‘lgan muallif mushohadasining kognitiv aspekti hali yetarlicha o‘rganilmaganligi dolzarb muammo sifatida qolmoqda. Xususan, badiiy matndagi mushohadaning funksional mohiyati, uning tipologik xususiyatlari hamda semantik-stilistik parametrlari keng qamrovli ilmiy tadqiqotni talab etadi. Shu bilan birga, mushohadada muallifning olam manzarasini aks ettiruvchi kognitiv strukturalarning o‘rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, “O‘zbekiston ilmfan va intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar va ilg‘or texnologiyalar bilan dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi lozim<sup>1</sup>” degan ustuvor g‘oya tilshunoslikdagi fundamental tadqiqotlarni jahon ilmiy standartlari darajasiga ko‘tarish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bois, muallif mushohadasi muammosini o‘rganish muhim nazariy ahamiyatga egaligi hamda bu muammoga tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari doirasida yetarli e‘tibor qaratilmaganligi ushbu tadqiqotni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

---

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2017-yil 23-dekabr. – № 258 (6952).

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ 5117-son O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari” to‘g‘risida”, 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish sifatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Zamonaviy tilshunoslikda matn lingvistikasi sohasida badiiy asarni tadqiq etish bilan bir qatorda uning alohida komponentlarini tahlil qilishga imkon yaratib, matnning tarkibiy va funksional jihatlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan G.Lakoff, R.Bogrand, V.Dressler, T.Van Deyk, I.Galperin, V.Kuxarenko<sup>2</sup> kabi bir qator olimlar badiiy matn tahlilining nazariy va amaliy jihatlarini belgilab berishgan. Shuningdek, rus tilshunosligida badiiy matnning lisoniy antroposentrik paradigma jihatdan tadqiq etilishi N.F.Alefirenko, I.V.Arnold, Yu.N. Karaulov, E.S.Kubryakova, V.A.Maslova, V.N.Teliya<sup>3</sup> kabi olimlar ishlarida kuzatiladi. O‘zbek tilshunosligida tilning antroposentrik tadqiqi hamda muallifga ishora qiluvchi omillar D.U.Ashurova, N.M.Mahmudov, X.A.Dadaboyev, Sh.S.Safarov, N.M.Djusupov, M.R.Galiyeva, D.E.Lutfullayeva, N.Z.Normurodova, D.S.Xudoyberganova<sup>4</sup> tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan.

---

<sup>2</sup> Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live by.* – Chicago/London: The University of Chicago Press, 1980. – 256 p.; Beaugrande R. de, & Dressler W. *Introduction to Text Linguistics.* – UK: Longman, 1981; Dressler W. U. *Principles of Textuality: Text Structure and Knowledge Representation.* – USA: Mouton de Gruyter, 1996; Van Dijk T. A. *Handbook of Discourse Analysis.* – London: Academic Press, 1985; Galperin I. R. *Stylistics.* – London: Higher School Publishing House, 1977; нный английский язык: Учебник для вузов. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2002. – 384 с.; Кухаренко В.А. *Интерпретация текста.* – 2-е изд., перераб. – М.: Просвещение, 1988.

<sup>3</sup>Алефиренко Н.Ф., Корина Н.Б. *Проблемы когнитивной лингвистики.* – Нитра: UKF, 2011. – 216 с.; Арнольд И.В. *Стилистика современного английского языка. Стилистика декодирования.* – Л.: Просвещение: Ленингр. отд-ние, 1981. – 298 с.; Караулов Ю.Н. *Русский язык и языковая личность.* – М.: Наука, 1989. – 261 с.; Кубрякова Е.С. *О термине «дискурс» и стоящей за ним структуре знания // Язык. Личность. Текст: Сборник к 70-летию Т.М. Николаевой // Ин-т славяноведения РАН; Отв. ред. проф. В.Н. Топоров.* – М.: Языки славянских культур, 2005. – С.23-33.; Маслова В.А. *Современные направления в лингвистике.* – М.: Академия, 2008. – 264 с.; Телия В.Н. *Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира.* – М.: Русский язык, 1988.

<sup>4</sup>Ashurova D.U., Galieva M.R. *Text Linguistics.* – Tashkent: Turon Istiqbol, 2016. – 324 p.; Махмудов Н. *Тил тилсими тадқиқи.* – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – 176 б.; Dadaboyev H.A., Xolmanova Z. *Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi* – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2015. – 224 b.; Сафаров Ш. *Когнитив тилшунослик.* – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91б.; Джусупов Н.М. *Когнитивная стилистика: теория и практика стратегии выдвижения в художественном тексте.* – Ташкент, 2019 – 464 с.; Лутфуллаева Д., Худойберганова Д. *Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси //Ўзбек тили ва адабиёти.* – Тошкент, 2017. 6-сон. – Б.35-41; Галиева М.Р. *Отражение мифолого-религиозного сознания и языковой картине мира. Автореф. дисс. ... док. филол. наук.* – Фергана, 2019. –77с.; Normurodova N.Z. *Ingliz badiiy diskursida antroposentrizmning verbal*

Badiiy matn kompozitsiyasi nazariyasiga oid filologik tadqiqotlarda muallif nutqi va obrazi turli jihatlarida: matnning o'ziga xos sintaktik va stilistik xususiyatlari<sup>5</sup>, stilistik kategoriyalari "matn modalligi" va "muallif obrazi"<sup>6</sup> kabi sifatlarida yoritilgan: Shuningdek, P.Lekan, I.Arxiyova, T.Plexanova, T.Sinipolskaya<sup>7</sup> kabi olimlar badiiy matnga strukturaviy-semantik nuqtayi nazaridan yondashib tadqiq etdilar. Oxirgi yillarda muallif lisoniy shaxsini til sathlarida voqelanishiga doir bir qator tadqiqotlar M.Umurzoqova, Z.Saliyeva, K.Abdulloyeva, I.Ernazarova, N.Pardayeva, M.Qurbanova, Sh. Qambarovning<sup>8</sup> tadqiqotlari amalga oshirildi. P.Dawson, A.Cotterill, J.Gardiner, M.Jenefer<sup>9</sup> singari ingliz tadqiqotchilari tomonidan esa badiiy matnda muallifga ishora qiluvchi unsurlar adabiy va lisoniy jihatdan tadqiq etilgan.

Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarida muallif mushohadasi muammosiga bag'ishlangan lingvistik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur sohada muayyan tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, hozirga qadar badiiy matnda muallif mushohadasining kognitiv jihatdan voqelanishi va uning namoyon bo'lish mexanizmlarini maxsus tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlar deyarli uchramaydi. Mazkur holat ushbu mavzuning alohida, kompleks ilmiy tadqiqot doirasida o'rganilishini taqozo etadi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi

---

eksplikatsiyasi: Filol. fan. d-ri. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B.17.; Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.

<sup>5</sup> Жирмунский В. М. Задачи поэтики / Жирмунский В. М. // Вопросы теории литературы : Статьи 1916—1926. – Л., 1928. – С. 17 – 88.

<sup>6</sup> Виноградов В. В. О теории художественной речи В. В. Виноградов. – М. : Наука, 1971. – 396 с., Солганик Г. Я. Синтаксическая стилистика. Сложное синтаксическое целое / Г. Я. Солганик // Учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по спец. "Рус. яз. и лит." и "Журналистика." – М. : Высш. Школа, 1973. – 214 с.

<sup>7</sup> Лекант П. А. Семантика вводных компонентов в тексте / П. А. Лекант // Семантика слова и словоформы в тексте : межвуз. сб. науч. тр.– М. : Изд-во Моск. обл. пед. ин-т им. Н.К. Крупской, 1988. – С. 3 – 6; Архипова И. М. Некоторые структурные и семантические характеристики авторских отступлений / И. М. Архипова // Вісник Харківського національного ун-ту. Сер. : Філологія. – Харків : ХНУ, 2004. – № 631, випуск 41. – С. 144–147; Плеханова Т.Ф. Лингвостилистическая характеристика авторских отступлений в английской художественной прозе : автореф. дис.на соискание учен. степени канд. филол. наук: спец. 10.02.04 Германские языки / Т. Ф. Плеханова. - М., 1973; Синипольская Т. А. Структурно-семантические и функциональные особенности текстового комментирования в научной фантастике : автореф. дис. на соискание учен. степени канд. филол. наук : спец. 10.02.04 "Германские языки" / Т. А. Синипольская. – К., 1991. – С. 16.

<sup>8</sup> Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.; Umurzakova M. Types of linguistic personality in the literary text (on the example of Ulugbek Hamdam's stories) – Asian Journal of Multidimensional Research. ISSN:2278-4853. Vol 10, Issue 5, May, 2021. – P.591-595; Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика предложения в английском и узбекском языках.: Автореф. дис...канд. филол. наук. – Т.: 2010. – 26 с.; Abdulloyeva K.M. Ingliz va o'zbek badiiy matnida muallif diskursiv shaxsi voqelanishining kognitiv aspekti. filol.f.b.doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2025 – 149 b.; Эрназарова И.Ш. Муаллиф сўз иждокорлигининг лисоний-когнитив таҳлили (Эшқобил Шуккур ижоди мисолида) : автореф. дис. (PhD) 2022 – 50 б.; Пардаева Н.Қ Анбар Отин асарларида муаллиф иждодий нияти ва бадий-эстетик идеалининг поэтик ифодаси (PhD) дис. – Toshkent, 2022 – 165 б.; Курбанова М.Э. Бадий таржимада муаллиф услуби масаласи (У.Шекспир трагедиялари таржималари мисолида) (PhD) дис. – Toshkent, 2022 – 139 б.; Qambarova S. "Muallif pozitsiyasi"ni o'rganish – badiiy asarni tushunish omili sifatida. // Pedagogik mahorat, №4. 2023.

<sup>9</sup> P. Dawson From Digressions to Intrusions: Authorial Commentary in the Novel. Columbus: The Ohio State University Press, 2023 – 254 p.; A.Cotterill Digressive Voices in Early Modern Literature. Oxford: Oxford UP, 2004 – 304 p.; J.Gardiner "What Is an Author?: Contemporary Publishing Discourse and the Author Figure." Publishing Research Quarterly, vol. 16, no. 1, Mar. 2000, pp. 41–53.; Jenefer M. "Style and Personality in the Literary Work." The Philosophical Review, vol. 94, no. 2, Apr. 1985, pp. 227-247.

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek va ingliz tillaridagi badiiy diskurs asosida muallif mushohadasining tipologiyasi hamda voqelanishiga doir kognitiv aspektning o‘ziga xosligini belgilovchi turli mental jarayonlar, bilim strukturalari va lisoniy majmuyini ilmiy asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning nazariy-metodologik bazasini shakllantiruvchi asosiy tamoyillarni tahlil qilish;

muallif mushohadasi va uning mohiyatini ochib berish hamda mushohadada muallif individual olam manzarasi aks etishini dalillash;

muallif mushohadasining tipologiyasini tadqiq qilish va uning badiiy matndagi funksiyalarini aniqlash;

ingliz va o‘zbek muallif mushohadasining madaniy belgi sifatidagi o‘ziga xosliklarini ochish, ulardagi aksiologik baho turlarini kuzatish bilan lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berish;

tadqiqot obykti sifatida tanlangan muallif mushohadasini ilgari surish vositasi sifatida tadqiq etish, hamda konseptual metaforalarning ahamiyatini ilmiy asoslash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida XX asr ingliz va o‘zbek yozuvchilari badiiy asarlarida voqe’langan muallif mushohadalari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** o‘zbek va ingliz badiiy diskursi asosida amalga oshirilgan tahlil doirasida muallif mushohadasining lisoniy voqelanish xususiyatlarini belgilaydigan kognitiv jarayonlar, bilim tuzilmalari hamda funksional belgilar majmuasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvistik tavsiflash, uslubiy tahlil va kontekstual tahlil kabi an’anaviy usullar shu bilan birga, konseptual tahlil, konseptual integratsiya tahlili hamda freym tahlili usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

muallif mushohadasi zamonaviy lingvistik yo‘nalishlarning fundamental tamoyillari asosida o‘zbek va ingliz badiiy matnlari materiallari chog‘ishtirma tarzda tekshirilib, uning kognitiv model sifatidagi maqomi qiyosiy tahlil asosida dalillangan;

muallif mushohadasiga xos mustaqil mazmunga egalik, konseptual ahamiyat, polifunksionallik, uslubiy belgilanganlik, axborotni ilgari surish va milliy olam manzarasini aks ettiruvchi aksiologik qadriyatlarini mujassam etish kabi xususiyatlar tahlili uning semantik-uslubiy, lingvokognitiv va lingvomadaniy verballashgan darajalarida namoyon bo‘lishi asoslangan;

o‘zbek va ingliz badiiy diskursida muallif mushohadasining estetik, uslubiy, kognitiv, madaniy shuningdek, kognitiv-kommunikativ, kognitiv-stilistik, kognitiv-pragmatik va hissiy-estetik vazifalarni amalga oshirishi orqali ko‘p funksiyali lingvistik hosila ekanligi aniqlangan;

o‘zbek va ingliz badiiy diskursida mushohada muallif individual olam manzarasining muhim tarkibiy komponenti bo‘lib, u umuminsoniy hamda milliy o‘ziga xos madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, shuningdek konseptual va aksiologik jihatdan muhim axborotni uzatuvchi madaniy model sifatida namoyon bo‘lishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda muallif mushohadasini o‘rganish zarurati kognitiv-diskursiv paradigma doirasida shakllangan ilmiy tamoyillar tizimi bilan izohlanishi asoslangan;

muallif mushohadalarining kognitiv-diskursiv omillarini aniqlashda semantik-uslubiy tahlil hamda konseptual integratsiya tahlilini qo‘llashning metodologik asoslari va ularning o‘zaro uyg‘unlikda natija berish imkoniyatlari isbotlangan;

muallif mushohadalarining lingvomadaniy boyligi milliy olam manzarasini ifodalovchi aksiologik baholarni mujassam etishi natijasida universal va milliy o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qilishi aniqlangan;

o‘zbek va ingliz badiiy matnlarida muallif mushohadasining kognitiv jihatlarini aks ettiruvchi indikatorlar aniqlanib, ularning tizimli tahlili asosida mushohadaning tillararo tadqiqotlar uchun universal metodologik model sifatida namoyon bo‘lishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** zamonaviy lingvistikaning nazariy asoslariga qat’iy amal qilinganligi, sohaning dolzarb metodologik yondashuvlaridan samarali foydalanilganligi, mavjud ilmiy adabiyotdagi nazariy qarashlar bilan mantiqiy uzviylik ta’minlanganligi hamda keng qamrovli empirik materiallar asosida olingan xulosalarning ilmiy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tilshunoslikda muallif mushohadasining mustaqil ilmiy termin sifatida rivojlanishiga xizmat qilishi, muallif mushohadasining kognitiv-madaniy fenomen sifatidagi mohiyatini til vositalari va bilim tuzilmalari integratsiyasi asosida ochib berishi, badiiy matnda axborotning lisoniy va mental ifodalanishi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlarini aniqlashi hamda o‘zbek va ingliz badiiy matnlarida muallif mushohadasiga oid yangi nazariy qarashlarni shakllantirishga imkon yaratishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta’lim muassasalarida o‘quv adabiyotlari va metodik qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish imkonini berishi, qiyosiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, adabiyotshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va etnolingvistika fanlari bo‘yicha ma’ruzalar ishlab chiqishda manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** O‘zbek va ingliz tillari badiiy diskursida muallif mushohadasi voqelanishining kognitiv aspekti tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

muallif mushohadasi zamonaviy lingvistik yo‘nalishlar asosida o‘zbek va ingliz badiiy matnlari materiallari asosida chog‘ishtirma tarzda tekshirilib, uning kognitiv model sifatidagi maqomi qiyosiy tahlil asosida dalillanganligi haqidagi



attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosadan iborat. Dissertatsiya hajmi 163 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, muammoning o‘rganilish darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotda foydalanilgan metodlar ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi “**Zamonaviy lingvistikada badiiy diskursning kognitiv asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, 3 fasldan iborat. Ushbu bobda muallif mushohadasini lisoniy hodisa sifatida o‘rganish maqsadida zamonaviy tilshunoslik asoslari, kognitiv tilshunoslikning nazariy tamoyillari, tarixi hamda rivoji, tilshunoslikda muallif mushohadasining mohiyati, badiiy matndagi funksiyalari o‘rganildi. Bobning birinchi fasli “*Kognitiv tadqiqotlarning tadrijiy takomillashuvi va badiiy diskursni o‘rganishning metodologik asoslari*” deb nomlangan bo‘lib, unda antropotsentrik paradigma asosida yuzaga kelgan zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari, xususan, kognitiv lingvistika rivoji, uning nazariy masalalari tadqiq qilingan. Zamonaviy tilshunoslikda ilmiy paradigmaga “til egasi” kategoriyasining kiritilishi antropotsentrik yondashuvni kuchaytirib, shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik va madaniyat kabi tushunchalarning faollashuviga olib keldi. U. Cheyf, Ch. Fillmor, R. Langaker va L. Talmi tadqiqotlari asosida shakllangan, bugungi kunda qator yo‘nalishlarni qamrab olgan hamda “fanlar federatsiyasi” sifatida ta’riflanadigan kognitiv tilshunoslik rivojlandi. Uning muhim vazifalaridan biri matn vositasida yuzaga keladigan verbal muloqot xususiyatlarini o‘rganishdan iboratdir.

Antropotsentrik yo‘nalishdagi zamonaviy tilshunoslikda diskurs asosiy tushunchalardan biriga aylandi. Zamonaviy talqinga ko‘ra, badiiy diskurs murakkab kommunikativ hodisa bo‘lib, matnni tushunish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha lingvistik va ekstralingvistik omillarni ham qamrab oladi. T. A. van Deyk diskurs talqiniga ijtimoiy kontekstni kiritib, muloqot ishtirokchilari hamda xabarni yaratish va idrok etish jarayonlarini yoritadi. D. U. Ashurova esa diskursni harakatdagi matn sifatida baholab, uning muloqot vaziyati va ijtimoiy-madaniy kontekstda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.

So‘nggi yillarda diskurs atamasi estetik ahamiyatga ega kommunikativ-verbal matn ma’nosida ham keng qo‘llanmoqda. Badiiy diskursning o‘ziga xosligi uning antropotsentrikligi, madaniy mazmuni va muallif tomonidan modellashtirilgan dunyoning badiiy suratini majoziy shaklda ifodalash imkoniyatidadir. Shu jihatdan

u eng murakkab muloqot turlaridan biri bo'lib, unda muallif, kitobxon va qahramonlar o'zaro subyekt sifatida ishtirok etadi.

Badiiy matn tuzilishining muhim tarkibiy unsurlaridan biri bo'lgan muallif mushohadasi muallifning dunyoqarashi, estetik pozitsiyasi va ideallarini aks ettiradi hamda asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini chuqurroq ochishda asosiy rol o'ynaydi. Til va nutq hodisalarini kognitiv yondashuv asosida o'rganish insonning olamni bilish va anglash jarayonida ongda shakllangan til birliklari, bilim tuzilmalari hamda empirik tajriba bilan til o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Bu yondashuv badiiy nutqda qanday tajriba ifodalangani va u qaysi lingvistik vositalar orqali uzatilganini ko'rsatadi. Natijada muallif dunyosining lisoniy surati nimasi bilan individual va betakror ekani aniqlanadi.

Mazkur tadqiqotda muallif mushohadasi semantik-stilistik, kommunikativ-pragmatik, lingvokognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlari nuqtayi nazaridan kompleks tarzda tahlil qilingan.

Bobning 1.2-fasli "*Muallif mushohadasi tushunchasining lingvokognitiv talqini va ilmiy tadqiq etilishi*" deb nomlagan bo'lib, ushbu faslda tilshunoslikda badiiy asarning syujeti bilan zaif aloqada bo'lgan, muallifning falsafiy-ijtimoiy qarashlarini aks ettiradigan muallif mushohadalari nazariy jihatdan o'rganilgan.

Badiiy asarda syujet rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydigan, syujet bilan nisbatan zaif bog'liq bo'lgan tarkibiy qismlar mavjud. Ushbu elementlar muallifning dunyoqarashi, estetik pozitsiyasi va ideallarini aks ettirib, asarning mazmuni hamda g'oyaviy yo'nalishini chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Badiiy matn tahlilida muallifning hikoya chizig'idan chekinib, shaxsiy mulohazalarini bayon etishi kuzatiladi. Bu hodisa dastlab she'riyatda, keyinchalik nasrda keng qo'llanilgan. Bunday mushohadalar muallifning individual uslubini namoyon etadi va kitobxonni asarning badiiy shakllanish darajasi bilan tanishtiradi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda muallif mushohadasining namoyon bo'lish shakllarini tasniflashga doir turli yondashuvlar mavjud. Turli tillar adabiyotshunosligida bu hodisa "author's digression", "remarka", "sentensiya", "apoftegma", "muallif chekinishi" kabi atamalar bilan ifodalanadi<sup>10</sup>. Tilshunoslikda esa "author's meditation", "muallif lisoni", "diskursiv shaxs" tushunchalari qo'llanadi<sup>11</sup>. Rus adabiyotida bu hodisa "otstupleniye", tilshunoslikda esa "avtorskie razmyshleniya", "rassujdenie" shaklida talqin qilinadi. Mazkur atamalar mazmunan yaqin bo'lsa-da, "muallif mushohadasi" termini muallifning falsafiy va umumlashtiruvchi fikrlarini ifodalashga ko'proq mos keladi.

---

<sup>10</sup> Arkhipova I. Author's Digression in the English Literary Text Space: Types of Cohesion. Arab World English Journal (AWEJ) Volume 12. №3 2021, - P. 201-215.; Hotamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. 1983. 176-b.; Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках.: Автореф. дис...канд. филол. наук. Т.: 2010. – 48 с.; Сысоев В. А. Авторское отступление как объект когнитивного исследования. – Москва, 2008. – С. 71.

<sup>11</sup> Quronov D., Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akadernashr, 2013. – B. 115.; Galperin I.R. Text as an Object of Linguistic Research. 1981. Moscow: Nauka.- С. 55.; Виноградов. В.В. О языке художественной прозы. Гозлитиздат, 1980. – 360 с.; Нормуродова Н.З. Инглиз бадий дискурсида антропоцентризмнинг вербал экспликацияси. Филол. фан. д-ри дисс автореф. – Тошкент. – С. 46.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “mulohaza” fikr yuritish, muhokama qilish ma’nolarida, “mushohada” esa kuzatish asosida o‘ylab xulosa chiqarish tarzida izohlanadi<sup>12</sup>. Shunga ko‘ra, “muallif mushohadasi” va “muallif mulohazasi” yaqin tushunchalar bo‘lsa-da, mushohada muallifning faylasufona o‘y-xayollari va ichki dunyosini kengroq aks ettiradi.

Tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida adabiyot va tilshunoslikda muallifga ishora qiluvchi terminlar turlicha ekanligi aniqlandi va badiiy diskurs xususiyatidan kelib chiqib “muallif mushohadasi” atamasi maqbul deb topildi. Mazkur termin badiiy matnda muallif shaxsiyatining namoyon bo‘lish mexanizmlarini lingvistik, stilistik va kognitiv jihatdan o‘rganish imkonini beradi.

Muallif mushohadasi badiiy matn tahlilining muhim elementlaridan biri bo‘lib, uning kompozitsion, lingvistik va estetik tuzilishida alohida o‘rin tutadi. U muallifning dunyoqarashi va g‘oyaviy niyatlarini ifodalovchi vosita sifatida matnning mazmuniy yaxlitligini belgilaydi. Shu bois muallif mushohadasini lingvistik, stilistik, kognitiv va madaniy jihatlarning integratsiyasi asosida o‘rganish zarur. Mazkur tadqiqotda muallif mushohadasi murakkab kognitiv-diskursiv struktura hamda muallif individual olam manzarasini aks ettiruvchi mikromatn sifatida talqin qilinadi.

Bobning 1.3-fasli “*Muallif mushohadasining stilistik va kognitiv omillar o‘zaro ta’siri kontekstidagi funksiyalari (vazifalari)*” deb atalib, metodologik jihatdan nihoyatda murakkab vazifa sanalgan badiiy matndagi muallif mushohadasining ko‘p qirrali funksional imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Syujetdan tashqari element sifatida qaraladigan muallif mushohadasi ham, badiiy matn bo‘lagi sifatida qator funksiyani bajaradi. Muallif mushohadasi kitobxonning hissiy holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Unda muallifning estetik didi va ruhiy kechinmalari mujassam bo‘ladi. Shu bois u ko‘p qirrali tadqiqot obyekti hisoblanadi. M.I. Arxipova ingliz badiiy matnidagi muallif mushohadasini lingvokognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilib, unda emotiv-estetik, fatik va kognitiv kabi uch asosiy funksiya mavjudligini ta’kidlaydi.

Ilmiy ishda D.U. Ashurova tasnifiga tayanib, muallif mushohadalarini badiiy asar tarkibida o‘zaro uyg‘unlikda muallifning individual olam manzarasini ochib beradigan birlamchi va ikkilamchi funksiyalarni bajaradi degan fikr ilgari suriladi. Muallif tezaurusi, ya’ni uning konseptual bilimlar tizimi va dunyoqarashi kognitiv, ijtimoiy, stilistik, madaniy kabi birlamchi funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, kognitiv-kommunikativ, kognitiv-stilistik, kognitiv-pragmatik hamda hissiy-estetik kabi qorishiq ikkilamchi funksiyalar ham amalga oshiriladi. Quyida D.U. Ashurovaning funksional modeli asosida muallif mushohadasi voqelangan parchani tahlilga tortamiz:

*“Qornimga yig‘lamayman, qadrimga yig‘layman!”-*

*eskimi, yangimi, gapni odamlar o‘xshatadi...*

*Biz, umuman, yig‘lamaymiz. Ammo:*

*Yig‘lashga to‘g‘ri kelsa, siz nimani deb yig‘laysiz?!*

---

<sup>12</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. A.Madvaliyev, D.Xudayberganova. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 2-nashr, B.– 635.

*Kulishga to'g'ri kelsa-chi?! Masalan?!<sup>13</sup>*

Olingan parcha lisoniy vositalarning funksional ko'pqirraliligini namoyon etishi jihatidan ahamiyatli bo'lib, unda o'zaro chambarchas bog'liq stilistik, kommunikativ-pragmatik va kognitiv-stilistik funksiyalar majmuasi mujassamlashgan. Kognitiv-pragmatik funksiya muallifning kitobxonga bevosita murojaati (*"siz nimani deb yig'laysiz?!"*, *"Kulishga to'g'ri kelsa-chi?!"*, *"Masalan?!"*) orqali uni shaxsiy hissiy tajribasi vositasida dialogga chaqirishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kognitiv-stilistik funksiyalar qatorida: a) attraktiv funksiya xalq maqolining keltirilishi, undov belgilari va kutilmagan ritorik savollar (*"Yig'lashga to'g'ri kelsa, siz nimani deb yig'laysiz?!"*) orqali kitobxon e'tiborini konseptual markazga jamlash; b) generativ (ma'no yaratish) funksiya *"qoringa yig'lash"* va *"qadrga yig'lash"* konseptual qarama-qarshilik asosida yangi ma'nolarni shakllantiradi - moddiy ehtiyoj va ma'naviy qadriyat o'rtasidagi ziddiyat gavdalanadi; v) muallifning o'zini ifodalash funksiyasi (*"Biz, umuman, yig'lamaymiz. Ammo:"*) orqali namoyon bo'ladi – bu muallif modalligi va uning ichki ruhiy holatining bevosita ifodasidir. Inversiya, antiteza, ritorik so'roq, ellipsis stilistik vositalarining konvergentlik holatini kuzatar ekanmiz, stilistik funksiyaning nazdidagi ekspressiv, emotiv, emfatik funksiyalar mavjudligini kuzatish mumkin. Madaniy funksiyaning aksiologik turi qadr-qimmatni moddiy ehtiyojdan yuqori baholash kabi milliy-ma'naviy qadriyatlarni ifodalaydi. Bunda barcha funksiyalar chambarchas bog'lanib, o'zaro ta'sir asosida yagona funksional-semantik maydonni hosil qilgani yaqqol namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **"O'zbek va ingliz badiiy diskursida muallif mushohadasining kognitiv tabiati va tipologik tasnifi"** deb atalib, 2.1 faslda *muallif mushohadasining kognitiv-diskursiv tipologiyasi* tadqiq qilinadi.

Tadqiqotlarda muallif mushohadasi turli mezonlar asosida tavsiflanadi. Shu sababli uni tasniflashga doir yondashuvlar ham xilma xil. Mazkur yondashuvlar keskin farqlanmasa-da, ilmiy jihatdan asoslangan va dalillangan qarashlarga tayanish muhimdir.

Ingliz badiiy matnlarining lisoniy xususiyatlarini o'rgangan N.Y. Dyakonova muallif mushohadalarini subyektiv taftish uslubi asosida tasniflaydi. U muallif izohlari, jamiyat voqeligiga muallif bahosi, hayotiy voqeyi kiritma hamda turli adresatga murojaat kabi turlarni ajratadi. M.O. Yegorova esa mushohadaning tarkibiy tuzilishi va matndagi joylashuvini o'rganib, struktur jihatdan mustaqil hamda intrastruktur turlarni farqlaydi. I.M. Arxipova muallif mushohadasini umumiy matn bilan bog'lanishiga ko'ra grammatik, semantik va assotsiativ turlarga ajratadi hamda uning matn tarkibiy qismi ekanini ta'kidlaydi. V. Sysoyev muallif mushohadasi maxsus kommunikativ tizimga ega bo'lib, semantik, struktur sintaktik, funksional stilistik va kommunikativ pragmatik mezonlar asosida tasniflanishini qayd etadi.

---

<sup>13</sup> Мухтор О. Аёллар мамлакати ва салтанати. ФФУ. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 6.

J. Ostin va J. R. Serl tomonidan ishlab chiqilgan nutq akti nazariyasiga ko'ra, nutqning eng kichik birligi nutq aktidir va har bir gap ma'lum harakatni amalga oshiradi. Gap orqali xabar berish, tasdiqlash yoki inkor etish, iltimos qilish, buyruq berish, maslahat yoki va'da bildirish kabi kommunikativ harakatlar bajariladi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, o'zbek va ingliz badiiy diskursida muallif mushohadasining kognitiv voqelanishini nutq akti nazariyasi asosida kommunikativ funksiyasiga ko'ra quyidagicha tasnif etdik:

*reprezentativ mushohadalar:* unda muallif ma'lum holatga ishonch bildiradi va xabar mazmunini tasdiq orqali ifodalaydi;

*verdiktiv mushohadalar:* ular shaxs yoki hodisaga baho berish va hukm chiqarish bilan bog'liq;

*direktiv mushohadalar:* buyruq, savol, iltimos yoki ogohlantirish orqali adresatni harakatga undaydi;

*ekspressiv introduktiv mushohadalar:* muallifning hayrat, rozilik, minnatdorchilik, norozilik yoki uzr kabi ruhiy holatini ifodalaydi.

Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, muallif mushohadasining konstitutiv belgilarini qamrab oluvchi tipologik tavsif ishlab chiqildi. Unda lison shaxsining aks etishi, kommunikativ funksiya namoyoni, shaxslararo ta'sir xususiyati, matn tuzilishi va mazmuni, hajmi, tarkibi hamda matndagi joylashuvi, shuningdek muallifning subyektiv ifoda uslubi mezon sifatida e'tiborga olindi. Natijada muallif mushohadasi murakkab, ko'p o'lchamli va ko'p pog'onali hodisa sifatida talqin qilindi. Biz tomonimizdan taklif etilayotgan ingliz va o'zbek badiiy diskursidagi muallif mushohadasining tipologik darajaviy tavsif modeli quyidagi chizmada aks etgan:



### 2.1-chizma. Muallif mushohadasining tipologik tasnifi

Muallif mushohadalarini farqlashning yuqorida qayd etilgan mezonlaridan kelib chiqib, quyidagi asosiy turlarni qabul qilish maqsadga muvofiqligi qayd etildi: *kognitiv jihatdan ahamiyatli mushohadalar; stilistik xossalariga ko'ra farqlanadigan mushohadalar; madaniy va psixologik jihatdan farqlanuvchi mushohadalar; pragmatik belgilariga ko'ra ajratiladigan mushohadalar* kabilar.

Bobning 2.2-fasli “*Muallif mushohadasini ifodalovchi badiiy-ifodaviy vositalarning konvergent xususiyatlari*” deb nomlanib ingliz va o'zbek tillaridagi muallif mushohadalari tadqiq etilgan. Badiiy matn murakkab struktur semantik tizim bo'lib, uning barcha qismlari o'zaro uzviy aloqada faoliyat ko'rsatadi. Bu tizimda muallif mushohadasi alohida semantik va stilistik yukni bajaradi hamda matnni qabul qilish va talqin etishda markaziy o'rin tutadi. Badiiy matnni anglash asarning ichki mazmun qatlamlariga kirib borish va kitobxon ongida yuzaga keladigan emotsional estetik ta'sirni tushunish imkonini beradi.

Muallif mushohadasi ifodalangan fragmentlar mustaqil matn bo‘lagi sifatida semantik va stilistik xususiyatlarga ega, degan nazariy qarash ilgari suriladi. Nazariy fikrlarni aniqlashtirish maqsadida ingliz va o‘zbek adabiyotining yirik vakillari asarlaridan olingan muallif mushohadalarini semantik stilistik hamda tipologik jihatdan, shuningdek ularning badiiy matndagi funksiyalari nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Jumladan, ayrim muallif mushohadalarini kompleks yondashuv asosida o‘rganilib, ularning turi, qo‘llangan stilistik vositalar, xususan metafora, mazmuniy yuk va stilistik funksiyasi tahlil etildi. Bu orqali metafora faqatgina tasviriy vosita emas, balki kontseptual va semantik darajada chuqur ahamiyatga ega bo‘lgan ifoda shakli sifatida qanday ishlatilgani ochib beriladi: *“The world is hard and cruel. We are here none knows why, and we go none knows whither. We must be very humble. We must see the beauty of quietness. We must go through life so inconspicuously that Fate does not notice us. And let us seek the love of simple, ignorant people. Their ignorance is better than all our knowledge. Let us be silent, content in our little corner, meek and gentle like them. That is the wisdom of life”*<sup>14</sup>.

Tahlilga e‘tibor qaratsak, muallif qiyos orqali badiiy tasvirni yorqinlashtirishga hissa qo‘shgan metaforalar (*the world is hard and cruel, fate does not notice us, beauty of quietness, little corner, wisdom of life*) dunyoni inson sifatlariga qiyoslab uning murakkab va mavhumligini ta’kidlab, mavhum tushunchalar (dunyo, taqdir, bilim)ga konkret xususiyatlar berib, kitobxonni falsafiy mulohaza qilishga chorlamoqda. Shuningdek, epitet (*simple, ignorant people*) obrazlarni rang-barang ifodalash hamda bir xil sintaktik takror (*We must... We must... We must...*) matnga didaktik ta’sir, ya’ni hayot qonuniyatlarini ta’kidlash, gap tuzilmalarining grammatik takrori – parallellizm (*Let us seek... Let us be silent...*) fikrning mantiqiy ketma-ketligini ta’minlab, ohang berish vazifasini bajarганиni kuzatish mumkin. Qolaversa, takrorlanib kelayotgan ushbu grammatik konstruksiyalar kitobxonni qandaydir harakat bajarishga undovchi **direktiv muallif mushohadasi** tipining xususiyatini namoyon etib, **stilistik funksiya** bilan birga muallif va kitobxon orasidagi muloqotni amalga oshiradigan **fatik funksiyani** amalga oshirayotganini ko‘rish mumkin.

O‘zbek badiiy matnidagi muallif mushohadalarini ham badiiy g‘oyani yaqqol ifodalashda muhim semantik-stilistik vazifani bajaradi. Masalan, O‘.Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” qissasidagi mushohadalarda metafora, ironiya va antiteza orqali mujassam falsafiy qarashlar o‘zaro uyg‘unlashib, matnning badiiy qatlamini boyitgan: *“Quyosh baxtidan entikkanlarga ham, g‘amidan bag‘ri qon bo‘lganlarga ham baravar nur sochaverar ekan”*<sup>15</sup>.

Tahlil uchun olingan mushohada **yig‘iq turga** mansub va faqatgina bir sodda yoyiq gapdan tashkil topgan. Unda muallifning dunyo haqidagi fikr-mulohaza va kuzatuvlari (“ekan” shakli orqali) bayon etilib, **reprezentativ nutq aktiga xos xususiyatlarini** namoyon qilish bilan bir qatorda *stilistik xossalariga ko‘ra farqlanadigan mushohadalar turiga mansub*. Ushbu jumla kitobxonda estetik zavq uyg‘otish, uni tafakkurga undash hamda muayyan hayotiy haqiqatni obrazli shaklda

<sup>14</sup> S. Maugham. The Moon and Sixpence. – London: Vintage, 2000 – P. 125.

<sup>15</sup> O‘. Hoshimov. Bahor qaytmaydi. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 91.

ifodalash vazifasini bajaradi. Xususan, quyoshga insonga xos sifat berilishi orqali jonlantirish usulidan foydalanilgan: *“Quyosh... nur sochaverar ekan”*. Shuningdek, “ham” bog‘lovchisi yordamida hosil qilingan sintaktik parallelizm: *“baxtidan entikkanlarga ham, g‘amidan bag‘ri qon bo‘lganlarga ham”* o‘xshash struktura asosida tuzilgan. Ushbu tuzilma antonimlar orqali antitezani vujudga keltiradi: *“baxtidan entikkanlar”* va *“g‘amidan bag‘ri qon bo‘lganlar”*. Bunda ruhiy azobni jismoniy holatga qiyoslash metaforik vosita orqali amalga oshirilgan. Bularning barchasi asar qahramoni Muqaddamning hayotidagi baxtiyorlik onlari, keskin taqdir zarbasini bilvosita yoritib, kitobxonning emotsional idroki va tushunchasini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning uchinchi bobini **“O‘zbek va ingliz badiiy diskursida muallif mushohadasining kognitiv aspekti”** deb nomlanib muallif mushohadalarining ikki til kesimida konseptual, kommunikativ-pragmatik, lingvokulturologik tahlilini qamrab oladi.

Bobning 3.1-fasli *“Muallif mushohadasi kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi ilgari surish (foregrounding) vositasi sifatida”* deb atalib, zamonaviy tilshunoslikda ilgari surish nazariyalari va turlari, muallif mushohadasini ilgari surish vositasiga aylantiruvchi unsurlar tahlil etiladi. Tadqiqotda muallif mushohadalarini matndagi konseptual ahamiyatli bo‘lgan axborotni ilgari surish usullaridan biri ekanligi dalillangan. Bunda asos muallif mushohadasining syujet bayonidan chetlashish, axborotni matnning kuchli pozitsiyasiga joylashtirish, stilistik jihatdan markirlanganlik, shuningdek, konseptual muhim bo‘lgan mazmuni uzatish bilan bog‘liq xususiyatlaridir.


Bu xususda E.Vaughning *“Decline and Fall”* asaridagi mushohada tahliliga murojaat qilindi: *“Why can not the creatures stay in one place? Up and down, in and out, round and round! Why can not they sit still and work? ...What an immature, self - destructive, antiquated mischief is man! ...How loathsome and beyond words boring all the thoughts and self - approval of his biological by - product! This half - formed, ill - conditioned body! This erratic, maladjusted mechanism of his soul: on one side the harmonious instincts and balanced responses of the animal, on the other the inflexible purpose of the engine, and between them man, equally alien from the being of Nature and the doing of the machine, the vile becoming!”<sup>16</sup>*

Mazkur muallif mushohadasi murakkab nutqiy va kognitiv tuzilma bo‘lib, u kengaytirilgan bir nechta slotlardan iborat, muallifning konseptosferasini tashkil etuvchi, freym tuzilmasida taqdim etilgan ko‘p sonli ochiq va yashirin ma’nomlarni ifodalash qobiliyatiga ega. Slotlarda taqdim etilgan eksplitsit va implitsit ma’lumotlarni dekodlash konseptual ma’lumotlarni talqin qilishga yordam beradi. Mushohadaning konseptual tuzilishi quyidagi tushunchalar bilan assotsialanadigan tayanch tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: Soul (restless, maladjusted soul), Immaturity (unfinished body), Nature (aimless, chaos), Character (arrogance). Shunday qilib, ushbu freymning asosiy konsepti “Harmony” konsepti unga bog‘liq “Soul”, “Immaturity”, “Nature”, “Character” kabi boshqa konseptlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ushbu freymning tegishli slotlarida ifodalangan. Muallif

---

<sup>16</sup> E. Waugh. Decline and Fall. – New York: Everyman’s Library, 2012. – P. 123-124.

mushohadada insonga xos xarakter xususiyatlarni ochishda satirik va kinoyali ifodalardan samarali foydalangan. Freym tuzilmasiga kiritilgan eksplitsit va implitsit ma'lumotlarni tahlil qilish uning chuqur konseptual mazmuniga kirib borish imkonini beradi: a) insonga xos xususiyatlar, insoniy qadriyatlarga nisbatan muallifning nuqtayi nazarini ifodalovchi konseptual ahamiyatga ega ma'lumotlar mavjudligi; b) hikoyaning syujet chizig'ini buzish; v) stilistik usullarning konvergentsiyasi: metaforalar, epitet, antiteza, takror, ritorik savol, mubolag'a; g) matnning kuchli pozitsiyasiga joylashtirish (matnning boshlanishi).



### 3.1- chizma. Human Nature konseptining tahlili


Mushohadaning ilgari surish vositasi ekanligini namoyon etuvchi unsurlardan biri kutilmaganlik effektidir. **“Kutilmaganlik effekti”** (effect of defeated expectation) deb ataladigan hodisani vujudga keltiradigan ushbu badiiy usul matnning, jumladan, muallif mushohadasining shakllanish jarayonida oldindan o‘ylangan taxminlarni bekor qilish orqali kitobxon diqqatini mushohadaga qaratish, ya’ni ilgari surishga xizmat qiladi. Bu hodisa matnning semantik tuzilmasida yaratilgan dissonans sifatida talqin qilinadi, unda muallif an’anaviy taxminlar va stereotiplarni ataylab buzish orqali yangicha idrok etish jarayonini amalga oshiradi:<sup>17</sup> *“Bahor devorlarning oftob ro‘ya etaklaridan boshlanmaydi. Bahor ariqlarning kungay sohillaridan boshlanmaydi. Bahor go‘ristondan boshlanadi...*

*Kim bilsin, tabiatning marhumlar ruhiga yilda bir marta ko‘rsatadigan marhamati, ehtimol, shudir... Cho‘g‘dek lovillagan qizg‘aldoqlar, saf tortgan gulsafsarlar orasida marmar toshlar ko‘rinadi. Oq marmar, qora marmar, ko‘k marmar... “Onajon, sizni to abad unutmamiz”, “Onajon, qildingiz bizga jon fido,*

<sup>17</sup> С.С. Барсукова. Приёмы создания эффекта обманутого ожидания на уровне предложения, Филология и человек. 2014. №1

*e voh, taqdir sizdan ayladi judo”, “Onajon, xotirangiz qalbimizda mangu yashaydi...”<sup>18</sup>*

Ushbu mushohada bahorning boshlanishi haqidagi an’anaviy tasavvurlarni ongli ravishda transformatsiya qilish orqali kuchli **kutilmaganlik effektini** yaratadi. Mushohadaning asosiy konseptini ochib berishga antiteza (*Bahor ariqlardan boshlanmaydi. Bahor go‘ristondan boshlanadi*) asos bo‘lgan. Insonlar ongida bahor yasharish, yangilanish fasli, quvonch, shodlik ulashuvchi davr sifatida tasavvur mavjud bo‘sa-da, muallif esa bu faslni go‘riston (o‘lim, qayg‘u, xotira) bilan bog‘laydi. Muallif semantik kontrast, qolaversa, bir necha bor takrorlangan bo‘lishsiz fe‘l shaklidan so‘ng bo‘lishli fe‘l keltirib kutilmaganlikni kuchaytirganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, metafora, antiteza, parallell qurilma singari stilistik vositalarning integratsiyasi axborotning semantik ustuvorligini ta‘minlab, uni kitobxon diqqat markaziga olib chiqadi. Kitobxonning bahor haqidagi ijobiy tasavvurlarini buzib, unga yangicha qarash: qayg‘u va shodlikning birga kelishini anglatadi.



### 3.2-chizma “Hayot” semantik maydonidagi antiteza va semantik zanjir

Bobning 3.2-fasli “*Muallif mushohadasida konseptual metaforalarning ahamiyati*” deb atalib, unda muallif mushohadalarini lingvokognitiv jihatdan o‘rganishga asos bo‘luvchi kognitiv strukturalar, ya’ni konseptual metaforalar tahlilga tortilgan.


Metaforaning kognitiv mexanizmi J.Lakoff va M.Jonson qarashlariga ko‘ra, dastlabki domendagi tanish va aniq tushunchalar orqali maqsad domenidagi mavhum konseptlarni tushunish va tavsiflashga xizmat qiladi<sup>19</sup>. Ushbu nazariyaga ko‘ra, metafora ikki konseptual domenning semantik integratsiyasi natijasida yangi bilim olishning kognitiv mexanizmi sifatida qaraladi. G.Fokoner tomonidan esa bu modelni murakkab tafakkur jarayonlarini tushuntirish uchun yanada kengaytirib, konseptual metaforani to‘rt mental fazoda integratsiyalab tahlil qilishni taklif etgan. Bunda kirish fazolaridagi elementlarning qisman proyeksiyasi natijasida hech bir kirish fazosida mavjud bo‘lmagan yangi paydo bo‘lgan struktura hosil bo‘ladi. Navbatdagi ingliz tili badiiy matnida voqe‘langan muallif mushohadasi fragmenti ushbu integratsiya usuliga asoslanadi:

*“Human sympathy has its limits and we were content to let all their tragic arguments fade with the city lights behind. Thirty - **the promise of a decade of***

<sup>18</sup> O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari. Yangi asr avlodi, 2015. – B. 252.

<sup>19</sup> Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. - Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 3-32.

*loneliness, a thinning list of single men to know, a thinning brief-case of enthusiasm, thinning hair.*<sup>20</sup>”



### 3.3-chizma. Metaforalarning konseptual integratsiyasi

Olingan muallif mushohadasi tahliliga e'tibor qaratilganda, *“the promise of a decade of loneliness”* birikmasi bir nechta konseptual maydon integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan yangi ma'noni ifodalashi aniqlanadi. Birinchi maydon *“promise”* tushunchasi bo'lib, u odatda ijobiy kelajak haqidagi ishonchni bildiradi. Ikkinchi maydon *“decade of loneliness”* bo'lib, u uzluksiz iztirob va yolg'izlik davrini anglatadi. Umumiy maydonda kelajak va vaqt omili ikkala tushunchani bog'lab turadi. Aralash makonda esa ushbu ikki konsept birlashib, paradoksal ma'no hosil qiladi. *“Promise”* so'zi ironik tarzda qayta talqin qilinib, ijobiy mazmunini yo'qotadi va muqarrar baxtsizlikni anglatadi. Natijada u kelajakdagi ijtimoiy tanazzul va ruhiy iztirobni bildiruvchi birlikka aylanadi. Konseptual maydonlar va semantik inversiya tahlili shuni ko'rsatadiki, oddiy *“promise”* tushunchasi metaforik birikma orqali yangicha mazmun kasb etadi va matnning umumiy g'oyasini kuchaytiradi. Inson hayotining eng faol davrida umid o'rniga yolg'izlik va ma'naviy bo'shliq kutilayotgani aks ettiriladi. Moliyaviy muvaffaqiyat va ijtimoiy obro' insoniy baxtni kafolatlamasligi, aksincha yangi iztiroblarga olib kelishi ko'rsatiladi. Syujetdan tashqari element sifatidagi muallif mushohadasi konseptual ahamiyatga ega ma'lumotni ilgari surish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U syujet chizig'idan chekinish asosida quriladi va o'zining uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Tadqiqotda o'zbek va ingliz badiiy matnlaridagi muallif mushohadalarida uchraydigan metaforik konstruksiyalar konseptual integratsiya nazariyasi asosida tahlil qilindi. Ushbu konstruksiyalar an'anaviy metaforalardan farqli ravishda ko'p makonli proyeksiyalash mexanizmlari orqali yuzaga keladigan murakkab kognitiv jarayonlar natijasi sifatida talqin etildi. Natijada kognitiv semantik o'zgarishlar sodir bo'lishi va muallifning individual olam manzarasi metaforik kontekstda namoyon bo'lishi kuzatildi. Bu holat muallif mushohadalaridagi konseptual metaforalar

<sup>20</sup> F.Scott Fitzgerald. Great Gatsby. Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – P.145.

nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki tafakkurning murakkabligi va tilning kreativ imkoniyatlarini aks ettiruvchi muhim kognitiv mexanizm ekanini ko'rsatadi.

Bobning 3.3-fasli "*Muallif mushohadasida bilim strukturalarining kognitiv voqelanishi*" deb nomlanib, unda muallif mushohadasining aksiologik baholash orqali milliy kolorit ifoda etish xususiyati tahlil qilinib, biz tomonimizdan uning muallif individual olam manzarasining muhim komponenti ekanligi, u muayyan muminsoniy va milliy axborotni yetkazib beruvchi madaniy model sifatida ko'rib chiqilishi tahlillar asosida dalillanadi.

Tilning aksiologik tomoni insonning voqea hodisalarga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishi va ularni baholashida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ekvivalent bo'lmagan leksika va lakunalar, urf-odat va marosimlar, paremiologik hamda frazeologik birliklar, stereotip, metafora va obrazlar, stilistik vositalar kabi lingvomadaniy belgilar tahlili muallif mushohadasining milliy xususiyatlarini ochishda muhim ahamiyatga ega.

Ingliz tilidagi quyidagi fragmentda milliy madaniy qadriyatlarning aksiologik talqini kuzatiladi: "*You gave people a lot of silly things... the adult equivalent of the enchanting Christmases of childhood...*". Ushbu mushohada shaxslararo ta'sir va emotsional tasdiq xarakteriga ko'ra ishontirish turiga mansubdir. Unda sotsiokulturologik va individual baholar uyg'unlashadi. "*Silly things, stockings of the wrong shade*" ifodasida Rojdestvo an'alariga nisbatan tanqidiy baho beriladi. "*Adult equivalent of the enchanting Christmases of childhood*" birikmasida ideal va haqiqat o'rtasidagi tafovut ochiladi. "*Terribly depressing and revolting*" kuchli salbiy emotsional bahoni bildirsa, "*enchanting Christmases of childhood*" nostalgik ijobiy bahoni ifodalaydi. Muallif shaxsiy tajribani umumiy qadriyatlar bilan qarama qarshi qo'yib, Rojdestvoni majburiyat va sun'iy quvonch timsoli sifatida tasvirlaydi. Parcha G'arb madaniyatidagi ideal va real tasavvurlar o'rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.

O'zbek matnida esa oilaning qadri orqali milliy olam manzarasi ifodalanadi:

*"Dunyoda befarzandlikdan yomon narsa bormi!*

*Yoshlikda bilinmaydi, umr o'yin-kulgi bilan o'taveradi. **Bola muhabbatini** er-xotinlikning hech tamom bo'lmaydigandek shirin suhbatini bosib turadi... Ana shunda zil ketadi, haligacha shirin deb shimib kelgan og'zingdagi **obakidandonning** taxiri chiqqandek bo'ladi. Ayniqsa, sen bilan oldinma-keyin turmush qurganlar bir-ikki farzand ko'rib, kattasini yetaklab **guzarga** chiqadigan bo'lganda, **qo'g'irchoqdek yasatib, boshlab yurganda** yomon! Ardoqlab oqqa ko'chirayotgan xatingga **siyoh to'kilgandek** yuraging achishadi"*<sup>21</sup>

*"Dunyoda befarzandlikdan yomon narsa bormi... Farzand er xotinlikka fayz kiritadi..."*. Ritorik so'roq bilan boshlangan ushbu verdiktiv mushohada kuchli aksiologik baholarni o'zida mujassam etadi. "*Farzand er xotinlikka fayz kiritadi*" iborasida etik va ijtimoiy baho ifodalanadi. "*Befarzandlikdan yomon narsa yo'q*" jumlasida ijtimoiy norma mustahkamlanadi. "*Qo'g'irchoqdek yasatib*" estetik bahoni, "*yuraging achishadi*", "*obakidandonning taxiri chiqqandek*" kabi ifodalar

<sup>21</sup> Shuhrat. Oltin zanglamas. – Toshkent: Adabiyot, 2023. – B. 11.

esa salbiy emotsional bahoni bildiradi. Farzandli oila ideal sifatida, befarzandlik esa nomukammal holat sifatida talqin qilinadi.

Har ikki tilda ham muallif mushohadasi individual lisoniy olam manzarasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda u konseptual va aksiologik ahamiyatga ega axborot tashuvchi, umuminsoniy hamda milliy madaniy qadriyatlarni ifodalovchi madaniy model sifatida talqin etildi.

## XULOSALAR

1. Badiiy diskursning antropotsentrik xususiyati, xususan, kognitiv tamoyili, eng avvalo, muallif diskursiv shaxsiyatida namoyon bo'ladi. Muallif modalligi va intensionalligida ifodalanadigan muallif shaxsi badiiy diskursda qo'llaniladigan til vositalarining yaxlit tizimi orqali aniqlanadi. Bu holat, avvalo, leksik birliklarning tanlanishida, shuningdek, diskursning semantik, pragmatik hamda kompozitsion tuzilishida yaqqol kuzatiladi. Ayni paytda diskursning ayrim fragmentlari muallif shaxsiyatini yanada yuqori darajada ochib beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muallif shaxsining verbal ifodasi muallif modalligi bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda muallifning kommunikativ-pragmatik, kognitiv, madaniy va psixologik jihatlari biz tadqiqotimiz uchun tanlagan, muallif mushohadalarida mujassamlashadi.

2. "Muallif mushohadasi" ko'p qirrali murakkab tushuncha ekanligi uni ingliz, o'zbek, rus tillari kesimida tipologiyaning qamrovi kengligi bu atamaning yagona tavsifi yo'qligini ko'rsatadi. Olib borilgan tadqiqot natijasiga ko'ra, "muallif mushohadasi" atamasi aynan muallifning fikrlari va o'y-xayollarini ifodalovchi lingvistik hodisa sifatida eng adekvat terminligi aniq bo'ldi. Bu badiiy asar kompozitsiyasida syujetdan tashqari tarkibiy element hisoblangan muallif mushohadasi badiiy diskursda asarning g'oyaviy-falsafiy mohiyatini yoritish, muallifning nuqtayi nazarini ochib berish hamda lisoniy olam tasvirini shakllantirish singari muhim kommunikativ va gnoseologik vazifani bajarishi bilan tavsiflanadi.

3. Muallif mushohadalari alohida mikromatn sifatida namoyon bo'lib, murakkab kommunikativ-kognitiv jarayonni aks ettiradi hamda olamning individual manzarasini voqelantirishga yo'naltirilgan muallifning modal munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu mushohadalar badiiy diskursda diskursiv shaxsni voqelantiruvchi asosiy verbalizatorlardan biri sifatida talqin etiladi. Bu tushuncha badiiy matnning murakkab tizimli-strukturaviy tahlilida markaziy o'rinni egallaydi va uning lingvistik, stilistik, kognitiv hamda madaniy jihatlarni integratsiyalashgan holda o'rganish zaruriyatini taqozo etadi. Bu jarayon nafaqat matnshunoslik va adabiyotshunoslikning nazariy bazasini boyitadi, balki badiiy diskursning semantik yaxlitligini chuqurroq anglash imkonini ham yaratadi. Muallif mushohadasi muallifning konseptual sohasini tashkil etuvchi turli madaniy konseptlarni birlashtiruvchi freym-mental konstruksiya sifatida qaraladi.

4. Lingvistik adabiyotlar tahlili jarayonida mavjud tasniflar mushohadalarning fanlararo funksiyalarini to'liq aks ettirmasligi ma'lum bo'ldi. Muallif mushohadasi o'zbek va ingliz badiiy diskursida badiiy matnning kompozitsion qismi sifatida muallif tezaurusining, ya'ni uning konseptual bilimlar

tizimi va dunyoqarashining ifodalanishi bilan estetik, uslubiy, kognitiv, madaniy, shuningdek, ikkilamchi kognitiv-kommunikativ, kognitiv-stilistik, kognitiv-pragmatik va hissiy-estetik funksiyalarni amalga oshirishi orqali ko'p funksiyali lingvistik hodisa ekanligi aniqlandi. Muallif mushohadasi o'zining ko'p funksiyaliligi, strukturaviy-semantik mustaqilligi va stilistik markerlanganligi bilan xarakterlanib, ushbu xususiyatlar uning kognitiv voqelanishida, ya'ni matndagi bilim, tafakkur va tasavvur shakllarining ifodasida muhim rol o'ynaydi.

5. Muallif mushohadasining tasniflariga doir har xil yondashuvlar mavjud bo'lib tadqiqotimiz maqsadlariga mos muallif mushohadasi turlarini farqlashning ba'zi asosiy me'zonlarini a) struktur-kompozitsion mezonga b) semantik-stilistik mezon s) kognitiv mezon d) madaniy me'zon e) psixologik me'zon kabi tasniflash maqsadga muvofiqdir. Tahlilga tortilgan muallif mushohadalari ikki tilda ham kognitiv, stilistik va madaniy jihatdan farqlanuvchi turlar mavjudligini ko'rsatadi. Ingliz fragmentlarida kognitiv va semantik-stilistik mezonlar; o'zbek fragmentlarida madaniy va semantik-stilistik (lirik-ekspressiv) mezonlar ustunlik qiladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi muallif mushohadalari asosan, ekspressiv-introduktiv, mushohada-ishontirish, mushohada-prolog kabi tur xususiyatlarni namoyon etagan bo'lsa, ingliz tilidagi materiallarda asosan direktiv, reprezentativ, mushohada-munozara kabi tur xususiyatlarini ko'proq dominantlik qilgan.

6. Empirik materiallar tahlili muallif mushohadasining badiiy diskursda ko'p qatlamli va konvergent stilistik hodisa ekanligini tasdiqlaydi. Ingliz badiiy matnlarida muallif mushohadasini ifodalashda sintaktik murakkablik, inversiya va muallifga xos okkazonal birliklar (uslubiy individual neologizmlar) yetakchi o'rin egallab, individual-mualliflik konseptual manzarasining lingvoijodkorlik jihatdan yo'naltirilganligini namoyon etsa, o'zbek badiiy diskursida leksik va fonetik stilistik vositalarning ustuvorligi, hissiy bo'yoqdorlik va milliy-madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqlik muallif mushohadasining asosiy xususiyatlarini belgilaydi. Mazkur farqlar har ikki til badiiy diskursida muallif mushohadasining kognitiv, aksiologik va madaniy modellashtiruvchi funksiyalarini ochib berib, uning individual stilistik mahoratni yuzaga chiqaruvchi muhim diskursiv mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

7. Muallif mushohadasining ilgari surish pozitsiyasini egallash mohiyati shundaki, u matnda yuqori darajadagi konseptual birlik sifatida namoyon bo'lib, o'zida turli konseptual mazmunlarni birlashtiruvchi mazmuniy fokusni ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan, a) stilistik vositalar konvergensiyasida namoyon bo'luvchi stilistik markirlanganlik xususiyatiga egaligi; b) muallif kontseptosferasini tashkil etuvchi kontseptlar majmuasini birlashtiruvchi verbal-mental konstruksiya asosi bo'lgan freym strukturaga egaligi; v) kontseptual jihatdan muhim axborotni markirlovchi ilgari surish vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lishi; g) diskursda kuchli pozitsiyani egallashi; d) syujet hikoya chizig'ining buzilishi bilan xarakterlanishi bilan ifodalanadi.

8. Ingliz tilidagi mushohadalarda okkazonalizmlarning ilgari surish effektini keng namoyon etishi, hatto o'zaro bog'liq konvergensiyada mujassamlashgan holda qo'llanishi, shrift garniturasini xususan, nafaqat so'zlar balki, so'z birikmalari, gaplarni bosh harflarda yozish orqali axborotni ilgari surish keng tarqalgan bo'lsa,

o‘zbek tilidagi muallif mushohadalarida esa punktutatsion belgilar, ayniqsa, ko‘p nuqta, undov, so‘roq kabilar mushohadani ilgari surish pozitsiyasiga olib chiqishi, okkazionalizmlarning esa kam uchrashi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, tematik jihatdan ingliz va o‘zbek tillar kesimidagi muallif mushohadasining voqelanishida jamiyat va shaxs munosabatlarini konseptuallashtirishda tizimli farqlar kuzatiladi. Ikkala til ham universal mavzularga (vaqt, yolg‘izlik, mavqey o‘zgarishi) murojaat qilsa-da, ularning konseptual asoslari va ijtimoiy konteksti turlichaligi bilan tavsiflanadi. Ingliz matnlarida individualizm, pragmatizm va ijtimoiy tanqid, shaxs o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi yetakchi, o‘zbek matnlarida esa asosiy mavzular jamoatchilik fikri, oilaviy qadriyatlar, nasl davomi va hissiy bog‘liqlik atrofida shakllangan.

9. Muallif mushohadasi har ikkala tilda ham muallif individual olam lisoniy manzarasining muhim komponenti bo‘lib, u biz tomonidan muayyan umuminsoniy hamda milliy o‘ziga xos madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, konseptual va aksiologik jihatdan ahamiyatli axborotni yetkazib beruvchi madaniy model sifatida talqin qilindi. Muallif mushohadalarining ikki tilda milliy-madaniy o‘ziga xosligini namoyon etadigan madaniy qadriyat, stereotip, lingvomadaniyat sistemasini aksiologik tashkil etilishini ko‘rib chiqilib, mushohadalarda qadriyatlarni aksiologik baholashning: sotsiokulturologik baholash, individual-shaxsiy aksiologik baholash, etik baholash, estetik baholash, emotsional salbiy/ijobiy baholash, madaniy-stereotipik baholash kabi turlari keng uchrashi aniqlandi.

10. Muallif individual dunyo manzarasini anglashda mushohadalarda qo‘llaniladigan kognitiv metaforalarni tadqiq qilishning ahamiyati dolzabrdir. Konseptual metaforalar har ikkala til badiiy diskursida ham umumiy, ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ma‘no shakllanishi konseptual integratsiya nazariyasida ta‘kidlanganidek, kirish makonlari, umumiy makon va aralashtirish makoni o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta‘sir natijasida yuzaga keladi. Ingliz tilida metaforalar ko‘pincha mavhum tushunchalar va strukturaviy ziddiyatlar asosida shakllansa, o‘zbek tilida ular madaniy belgilar va hissiy assotsiatsiyalar asosida quriladi. Metaforik ma‘noning shakllanishida semantik ziddiyat va o‘xshashliklar asosiy omil sifatida ishtirok etishi ahamiyatlidir.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 AT THE TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER  
NAVOI**

---

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND  
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

**KHAMROYEVA SHAKHZODA IKROMOVNA**

**THE COGNITIVE ASPECT OF THE REPRESENTATION OF  
AUTHOR'S MEDITATION IN UZBEK AND ENGLISH LITERARY  
DISCOURSE**

**10.00.06 – Comparative literature, comparative linguistics and translation studies**

**DISSERTATION ABSTRACT**

**of the Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences**

**Tashkent – 2026**

**The theme of dissertation for doctor of philosophy (PhD) was registered by the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number № B2023.2.PhD/Fil3603.**

The dissertation has been carried out at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) is placed on the website of the Scientific Council ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) and Information-educational portal "Ziyonet" ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Scientific adviser:** **Normurodova Nozliya Zarilovna**  
Doctor of Philological sciences (DSc), professor

**Official opponents:** **Galiyeva Margarita Rafaelovna**  
Doctor of Philological sciences (DSc), professor

**Lutfullayeva Durdona Esonovna**  
Doctor of Philological sciences, professor

**Leading organization:** **Samarkand state institute of foreign languages**

The defense of dissertation will take place on "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2026 at \_\_\_\_ at a meeting of the Scientific Council DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. (Address: Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city, 100100. Tel.: (99871) 281-42-44); fax: (99871) 281-42-44); fax: (99871) 281-12-44). ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

The doctoral dissertation can be reviewed in the Information-Resource Centre of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registration under № \_\_\_\_). (Address: 100100, Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city. Phone number: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, fax: (99871) 281-12-44 ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

The abstract of dissertation is distributed on "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2026.  
(Protocol at the register № \_\_\_\_ of "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2026).

**Sh.S.Sirojiddinov**  
Chairman of the Scientific Council  
awarding scientific degrees, Doctor of  
Philological Sciences, Academician

**Q.U.Pardaev**  
Scientific Secretary of the Scientific  
Council awarding scientific degrees,  
Doctor of Philological Sciences,  
Professor

**S.Kh. Muhamedova**  
Deputy Chair of the Scientific Seminar  
at the Scientific Council Awarding scientific  
degrees Doctor of Philological Sciences, Professor

## **INTRODUCTION (abstract of the PhD thesis)**

**The topicality of the dissertation.** In recent years, world linguistics has been placing special emphasis on the study of language in relation to human thought, perception, and speech activity. That is, language is interpreted not merely as a system of signs, but as a means by which humans comprehend and express reality. The linguocognitive approach, grounded in anthropocentric principles, places this very aspect at its core. Analyzing the author's worldview in literary discourse through semantic and stylistic means serves to elucidate the interconnections between language, thought, and creative consciousness.

In world linguistics, approaches to the study of author's meditation have expanded recently, with this phenomenon being interpreted as an expression of the author's thoughts and experiences in a literary work. Author's meditation possesses a complex semantic structure and is regarded as a structural component closely linked to the overall idea of the work, in which stylistic and cognitive aspects manifest as an integrated whole; consequently, research on this phenomenon is being conducted both within a single language and through comparative, multilingual studies. The investigation of author's meditation in the fields of linguistics and cognitive stylistics, alongside literary studies, is of particular importance, as such an approach strengthens the theoretical foundations of text analysis and, most importantly, contributes to a deeper understanding of the inner structure and semantic coherence of a literary work.

Although a number of scholars in Uzbek linguistics are conducting extensive scientific research grounded in the anthropocentric approach, the cognitive aspect of author's meditation an essential structural element of a literary work remains insufficiently studied, thereby constituting a pressing issue. In particular, the functional essence of author's meditation in literary texts, its typological characteristics, and its semantic-stylistic parameters require comprehensive scientific inquiry. Moreover, the role of cognitive structures reflecting the author's worldview within meditation fragments holds particular significance. The priority principle that "Uzbekistan must be globally competitive in the field of science and intellectual potential, equipped with modern personnel and advanced technologies" reaffirms the necessity of elevating fundamental research in linguistics to the level of international academic standards. Consequently, the significant theoretical importance of studying the issue of author's meditation, along with the insufficient attention it has received within emerging directions of linguistics, underscores the necessity of conducting this research.

This dissertation serves to a certain extent in fulfilling the tasks set forth in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 of January 28, 2022, on the "Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026", and No. PF-5847 of October 8, 2019, on the "Approval of the Concept for the Development

of Higher Education in the Republic of Uzbekistan until 2030”, as well as in the Resolutions No. PQ-5117 of May 19, 2021, on “Measures to Bring the Promotion of Foreign Language Learning in the Republic of Uzbekistan to a Qualitatively New Stage”, and No. PQ-239 of June 27, 2024, on “Additional Measures to Improve the Effectiveness of Teaching Foreign Languages to Youth”, together with Resolution No. 610 of August 11, 2017, of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan on “Measures to Improve the Quality of Foreign Language Instruction in Educational Institutions”, and other regulatory and legal documents related to this area.

**Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic.** I. The dissertation was carried out in accordance with the priority direction “Formation of a System of Innovative Ideas and Ways of Their Implementation in the Social, Legal, Economic, Cultural, and Spiritual-Educational Development of an Information Society and a Democratic State.”

**The degree to which the problem has been studied.** In modern linguistics, research in the field of text linguistics enables the analysis of a literary work’s individual components alongside its study as a whole, thereby facilitating a deeper understanding of its structural and functional aspects. From this point, scholars such as G. Lakoff, R. Bogrand, W. Dressler, T. van Dijk, I. Galperin, and V. Kuxarenko have laid the theoretical and practical foundations for the analysis of literary texts<sup>22</sup>. Furthermore, the study of the literary text from the meditation of the linguistic anthropocentric paradigm in Russian linguistics is observed in the works of scholars like N.F. Alefirenko, I.V. Arnold, Yu.N. Karaulov, E.S. Kubryakova, V.A. Maslova, and V.N. Teliya<sup>23</sup>. In Uzbek linguistics, the anthropocentric study of language and author-referential elements has been comprehensively investigated in the research of D.U. Ashurova, N.M. Mahmudov, X.A. Dadaboyev, Sh.S. Safarov, N.M. Djusupov, M.R. Galiyeva, D.E. Lutfullayeva, N.Z. Normurodova, D.S. Khudoyberganova<sup>24</sup>.

---

<sup>22</sup> Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live by*. – Chicago/London: The University of Chicago Press, 1980. – 256 p.; Beaugrande R. de, & Dressler W. *Introduction to Text Linguistics*. – UK: Longman, 1981; Dressler W. U. *Principles of Textuality: Text Structure and Knowledge Representation*. – USA: Mouton de Gruyter, 1996; Van Dijk T. A. *Handbook of Discourse Analysis*. – London: Academic Press, 1985; Galperin I. R. *Stylistics*. – London: Higher School Publishing House, 1977; нный английский язык: Учебник для вузов. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2002. – 384 с.; Кухаренко В.А. *Интерпретация текста*. – 2-е изд., перераб. – М.: Просвещение, 1988. – 192 с.

<sup>23</sup> Алефиренко Н.Ф., Корина Н.Б. *Проблемы когнитивной лингвистики*. – Нитра: UKF, 2011. – 216 с.; Арнольд И.В. *Стилистика современного английского языка. Стилистика декодирования*. – Л.: Просвещение: Ленингр. отд-ние, 1981. – 298 с.; Караулов Ю.Н. *Русский язык и языковая личность*. – М.: Наука, 1989. – 261 с.; Кубрякова Е.С. *О термине «дискурс» и стоящей за ним структуре знания // Язык. Личность. Текст: Сборник к 70-летию Т.М. Николаевой / / Ин-т славяноведения РАН; Отв. ред. проф. В.Н. Топоров*. – М.: Языки славянских культур, 2005. – С.23-33.; Маслова В.А. *Современные направления в лингвистике*. – М.: Академия, 2008. – 264 с.; Телия В.Н. *Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира*. – М.: Русский язык, 1988. – 267 с.

<sup>24</sup> Ashurova D.U., Galiyeva M.R. *Text Linguistics*. – Tashkent: Turon Istiqbol, 2016. – 324 p.; Махмудов Н. *Тил тилсими тадқиқи*. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – 176 б.; Dadaboyev H.A., Xolmanova Z. *Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi* – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2015. – 224 b.; Сафаров Ш. *Когнитив тилшунослик*. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91б.; Джусупов Н.М. *Когнитивная стилистика: теория и практика стратегии*

In philological works on the theory of literary text composition, the author's speech and image have been illuminated through various aspects: the specific syntactic and stylistic features of the text, and stylistic categories such as "text modality" and "the image of the author." Furthermore, numerous scholars such as P.A. Lekant, I.M. Arkhipova, T.F. Pleshchanova, and T.A. Sinopolskaya have approached and investigated the literary text from a structural-semantic point of view<sup>25</sup>. In recent years, a number of specialised studies on the realization of the author's personality across language levels have been carried out by M. Umurzoqova, Z. Saliyeva, K. Abdulloeva, I. Ernazarova, N. Pardayeva, M. Qurbanova and Sh. Qambarov<sup>26</sup>. By English researchers such as P. Dawson, A. Cotterill, J. Gardiner and M. Jenefer, the elements in a literary text that refer to the author have been examined from both literary and linguistic perspectives<sup>27</sup>.

An analysis of linguistic literature devoted to the problem of author's meditation in modern linguistic schools reveals that, although certain studies have been conducted in this area, there is currently a lack of scientific works specifically investigating the cognitive realization of author's meditation and its mechanisms of manifestation in discourse. This gap in the research necessitates a comprehensive scientific investigation of the topic, which serves as the rationale for its selection as the object of this study.

---

выдвижения в художественном тексте. – Ташкент, 2019 – 464с. Лутфуллаева Д., Худойбергана Д. Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. 6-сон. – Б.35-41; Normurodova N.Z. Ingliz badiiy diskursida antroposentrizmning verbal eksplikatsiyasi: Filol. fan. d-ri. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – В.17.; Худойбергана Д. Матнинг антропоцентрик таъкики. – Тошкент: Фан, 2013.; Джусупов Н.М. Когнитивная стилистика: теория и практика стратегии выдвижения в художественном тексте. – Ташкент, 2019 – 464с.

<sup>25</sup> Лекант П. А. Семантика вводных компонентов в тексте / П. А. Лекант // Семантика слова и словоформы в тексте : межвуз. сб. науч. тр.– М. : Изд-во Моск. обл. пед. ин-т им. Н.К. Крупской, 1988. – С. 3 – 6.

Архипова И. М. Некоторые структурные и семантические характеристики авторских отступлений / И. М. Архипова // Вісник Харківського національного ун-ту. Сер. : Філологія. – Харків : ХНУ, 2004. – № 631, випуск 41. – С. 144–147; Плеханова Т.Ф. Лингвостилистическая характеристика авторских отступлений в английской художественной прозе : автореф. дис.на соискание учен. степени канд. филол. наук: спец. 10.02.04 Германские языки / Т. Ф. Плеханова. - М., 1973. Синипольская Т. А. Структурно-семантические и функциональные особенности текстового комментирования в научной фантастике : автореф. дис. на соискание учен. степени канд. филол. наук : спец. 10.02.04 "Германские языки" / Т. А. Синипольская. – К., 1991. – С. 16.

